



About Ahmad Muammoiy and his work

Dilnoza ESANOVA¹

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

ARTICLE INFO

Article history:

Received July 2024
Received in revised form
10 August 2024
Accepted 25 August 2024
Available online
25 September 2024

Keywords:

muammo,
Uzbek literature,
Ahmad al-Muammoiy,
genre,
poetic techniques,
historical evolution.

ABSTRACT

This article explores the development of the muammo genre in Uzbek literature across various historical periods, from ancient times to the present day. Special attention is given to the Turkish poet Ahmad al-Muammoiy and his work "Risalat al-Muammo." The article analyzes different types of muammo, poetic techniques, and symbolism used in this genre, as well as its impact on the formation of literary tradition in Uzbekistan.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss3/S-pp229-233>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ahmad Muammoiy va uning asari xususida

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

muammo,
o'zbek adabiyoti,
Ahmad al-Muammoiy,
janr,
poetik usullar,
tarixiy evolyutsiya.

Maqolada o'zbek adabiyotidagi muammo janrining tarixiy rivojlanishi turli davrlar kesimida ko'rib chiqiladi. Xususan, turkiy shoir Ahmad al-Muammoiy va uning "Risolayi muammo" asari tahlil qilinadi. Muallif muammo janrining turli shakllariga izoh beradi va ushbu janrdagi murakkab poetik usullarni yoritadi. Shuningdek, maqolada muammo janrining o'zbek adabiy an'alariga ta'siri va uning rivojlanishi tahlil qilinadi.

Об Ахмаде Муаммой и его произведениях

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

муammo,
узбекская литература,
Ахмад аль-Муаммой,
жанр,

В статье рассматривается развитие жанра муammo в узбекской литературе на протяжении различных исторических периодов, начиная с древности и заканчивая современностью. Особое внимание уделяется произведению турецкого поэта Ахмада аль-Муаммой, его

¹ Doctoral student, Uzbek Philology, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

поэтические приемы,
историческая эволюция

трактовке жанра и его основным теоретическим аспектам. В статье анализируются виды муаммо и примеры их использования, включая сложные поэтические приемы и символику, а также влияние этого жанра на формирование литературной традиции в Узбекистане.

O'zbek adabiyotida muammo janrining tarixiy geneziyasi bir necha asosiy bosqichlardan iborat.

1. Qadimiy davr: O'zbek adabiyotining dastlabki namunalari, masalan, "Alisher Navoiy" asarlarida, insoniy muammolar va axloqiy masalalar ko'tarilgan. Bu davrda adabiyotda ijtimoiy adolat va axloqiy g'oyalar muhim o'rin tutgan.

2. Milliy uyg'onish davri (19-asr oxiri – 20-asr boshlarida): Bu davrda O'zbek adabiyoti milliy, ijtimoiy va madaniy muammolarni o'rganishga qaratilgan. Abdulhamid Cho'lpon va boshqa yozuvchilar xalqning haq-huquqlari, ta'lim va madaniyat masalalarini yoritishga intildilar.

3. Sovet davri (1920-1991): Bu davrda muammo janri yangicha shakllandi. Inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, ijtimoiy tenglik va adolat masalalari ko'tarildi. Yozuvchilar bu davrda siyosiy va ijtimoiy muammolarni o'rganishga davom etdilar.

4. Mustaqillik davri (1991-yildan hozirgacha): Mustaqil O'zbekistonda muammo janri yangi, global muammolarni, madaniy identitet va tarixiy tajribalarni yoritishga yo'naltirildi. Zamonaviy yozuvchilar ijtimoiy va shaxsiy muammolarni yangi uslub va shakllarda ifodalashga harakat qilmoqdalar.

Shunday qilib, O'zbek adabiyotida muammo janri tarixiy rivojlanish jarayonida ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarga muvofiq shakllangan. Muammo janri, ko'pincha maqolalar, esse va hikoyalar shaklida, muhim ijtimoiy masalalarni, shuningdek, inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni, adabiy tanqidni o'z ichiga oladi. Bu janrda O'zbekiston adabiyotida Abdulhamid Cho'lpon, Hamid Olimjon, va Ismoil Qutbiddin kabi yozuvchilar muhim rol o'ynadilar. Shu bilan birga, 1960-70-yillarda muammo janri yana rivojlanib, zamonaviy hayotning muammolarini, o'zbek millatining identiteti va tarixiy tajribalarini aks ettiruvchi asarlar yaratildi. Bugungi kunda ham bu janr o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda, zamonaviy muammolar va globalizatsiya jarayonlari yuzasidan yangicha qarashlarni talab etmoqda.

Muammo – arabcha a'mo - "ko'zi ko'r qilingan", degan ma'noni anglatishi barchaga ma'lum. Turkiyalik she'rshunos Ahmad al-Muammoiy o'zining "Risolayi muammo" asarini o'z davridagi Rum elining askarlari qozisi bo'lgan Axiyzoda Abdulhalim Afandining topshirig'i bilan yozganini shunday izohlaydi: "ammo bu asnoda ushbu da'vat-chaqiriqning hosil bo'lishiga bois uldur, ki bu ta'lifning unvoni afzalul-fuzaloi al- mutahayyiriyn, vorisi ulumi Hazrat Sayyid - al mursaliyn, manbai ziloli ulum va ma'orif, sarchashmai zavorifi avorif, nazm:

Muhiti ma'rifati bahri muruvvat,
Sipehri makramati xurshidi tal'at.
Sariri ilmu fazling jonishini,
Sharifi sadring bolonishini.
Muattar bo'yi xulqi birla olam,
Nasimi anfosi jonbaxshi-la xushdam.

Sadrul afozil, bahrul fazoil, mutajam'il-anvo'il funun al- aqliya, hoviyyi asnofil ulum ush-sha'ria van-naqliya, AXIYZODA ABDULHALIM AFANDI, al-qoziy bil asokiril mansur fiy Rum eli".

Aslida Ahmad Muammoyi bu janrga qiziqishini shunday ifodalaydi: "zakovat va fatonat arboblarning zamiriga yashirin qolmasinkim, bu bekaslik va tanholik sahrosining sargashtasi, faqir va haqir Ahmad Muammoyi bundan oldingi muammo risolalarini ko'pchiligiga ergashib, ba'zi vaqtlarda salim ta'bli va mustaqim zehni do'stlarimizga ko'rsatardik va ular bilan bahsu munozara qilardik. Ular mendan o'z davrining muammobayon shoirlaridan Amriy Chalabiyning zehnidan chiqqan lochinparvoz muammolarni bir joyga yig'ishni iltimos qildilar. Lekin bu ishga imkonim yo'q edi, qo'lim kaltalik qilardi. Shunda bunga Qozi askar AXIYZODA ABDULHALIM AFANDI bosh qo'shdilar va qo'llab-quvvatladilar, deydi. Ahmad Muammoyining "bekaslik va tanholik sahrosining sargashtasi" jumlasidan uning oilasi bo'lmagan, degan xulosa ham chiqarish mumkin. U ulfat – do'stlari bilan har joyda o'tirishlarda muammo janridagi she'rlarni aytib yurgan. Do'stlari esa uning zehni o'tkirligi uchun o'zlaridan oldin o'tgan Amriy Chalabiyning muammolarini bir yerga yig'ishini so'rashgan. Lekin bunga moddiy mablag'i bo'lmagan Shunda bu asarini o'rtaga keltirishda unga moddiy ko'makni Qozi askar Axiyzoda bergan.

Muqaddimadan so'ng Ahmad Muammoyi ushbu janriga tabiatiga izoh bergan: "Muammo bir kalomedur, ki ramz va iymo tariqi-la asmodin bir ism uzarina dalolat aylaya, basharti on, ki tab'i salim va qalbi mustaqiym oning qabulidan ibo go'starmaya (ibo qilmasin, tortinmasin)".

Keyin esa muallif muammolarning turlariga izoh beradi va dastlab ularning 4 ta shaklini sanaydi:

1. Tahsiliy (hosil qilish bilan bog'liq)
2. Takmiliy (komil qilish, to'ldirish bilan bog'liq)
3. Tas'hiliy (yengillashtirish bilan bog'liq)
4. Tazyiliydur. (zoyil qilish, ya'ni oradan yo'qotish bilan bog'liq)

Muallifning yozishicha, "Tahsiliy muammo" moddaga xosdir. ya'niki uni anglash uchun harf hosil qilinadi. "Takmiliy muammo" esa suratga mansub bo'lib, hosil bo'lgan harflarning tartibi va takmiliga qarab chiqariladi. "Tashiliy muammo" bo'lsa "modda va suratdan biriga xos bo'lmagan, balki har birisining oson bo'lishini ifoda qiladi. Yuqoridagi uchta qismdan farqli o'laroq, "tazliliy muammo" ismning tarkibida zarur bo'lgan amrlardan, ya'ni zoyil bo'lish – qisqarish orqali hosil bo'ladi, ki ismdagi harflarning illati, tartibi natijasida hosil bo'lmaydi, balki orizalar – harakatlar asosida paydo bo'ladi. Jumladan, harakat, sukun, tashdid, tahfif va shunga o'xshash amallarni bajarish orqali sodir bo'ladi. Demak, avvalgi uchta muammo asosan mavjud ismdagi olish va qo'yishlar usuli bilan topilsa, keyingi bittasining topish usuli o'zgachadir, ya'ni fatha, kasma, zer –zabar, sokin, tashdid singari amallar orqali hosil qilinadi.

Biroq, ba'zi forsiy manbalarda bu muammo amallari 3 qism ekani haqida ma'lumot berilgan. Jumladan: "Va a'moli muammo se qism ast. Chi ba'zi ba jihati tahsili modda va hurufi ism ast va onro a'moli tahsili go'yand. (va muammo amallari uch qismdir, ki ba'zilari ismdagi modda va harflarni hosil qilish orqali bajariladi va unga tahsiliy – hosil qiluvchi amallar deb aytishadi). Va ba'zi bajihati takmili surat va tartibash va onro a'moli takmili xonand. (va ba'zilari suratni va tartibni mukammallashtirish bilan bog'liq bo'lib, uni takmiliy – komilu qiluvchi, to'ldiruvchi amallar deb atashadi). Va ba'zi ba jihati tashili in

a'mol foyda va naf'i on har du qismro shomil ast va intro a'moli tashili nomand (Va ba'zilar bu amallarning foyda va naf'lari har ikki qismga xos va to'ldiruvchidir, ki buni tashili amallar deb nomlashadi)

Ahmad al- Muammoiy eslatilgan turlaridan osoni bo'lgan "tashiliy muammo"ga diqqat qaratib, uni paydo qiluvchi amallari ham 4 ta ekanini aytadi: "A'moli tashiliy do'rt (4) qismdur: Intiqod, tahlil, tarkib, tabdildur. Ammo intiqod bir lafzing (so'zning) ba'zi ijrosina vujudin bar-vajh-la ishorat etmakdin iboratdur. Anda tasarruf sharti-la. Va agar tasarruf juz'i avval kalimada voqe' o'lsa, kerakdur, ki fil-jumla bidoyata (boshlanishiga) dalolat aylayan alfoz ila juz'i mazkur mashoriun-ilayh intiqod voqe' o'la. Masalan: Sar, toj, afsar, ro'y, bolo va avj kalimalari kabi. Va daxi bularning amsoli alfoz irod qilub, harfi avval kalimayi iroda aylayurlar. Chunonchi, dar ismi BAHROM:

Charxa qilich cheksa ul Mirrix nom,
Besar o'lur mehr-la moh tamom.

(Agar charxga qilichini solsa ul Mirrix nom, Mehr – quyosh ham, Moh – oy ham tamoman boshidan judo bo'ladi)

Harfi avvali kalimai MEHR besar iborati-la mashoriun-ilayh intiqodiy voqe' o'lub, harfi BO-ga tabdili qasd o'linmishdur. Va MOHdin uslubi inxisoru va tasmiya vasotini-la kalimai LOM iroda qilinib, aning daxi harfi avvali mashoriun-ilayh intiqodiy o'lub, darajai e'tibordin suqut bo'lmishdur". Demak, ushbu muammoga ko'ra مەر so'zidagi "mim"ning boshi kesilsa "be" shakli (kema shakli) qoladi, ya'ni mim"ning boshi – nuqtasi kesilib, pastga tushadi va "mim" (boshi kesilgan mimdan qolgan kema shaklining pastiga bosh – nuqta tushadi) va "be"ga aylanadi. Bunda faqat "mim"ning so'z boshida kelgan shakli nazarda tutiladi. (م - ب). Mohning uslub inxirosi ماه, ya'ni kesilishi: kamayishi bilan "om" qoladi. Intiqod haqida forsiy manbada quyidagicha keladi: "Intiqod – ishorat kardan ast ba ba'ze hurufi kalima ba jihati navye tasarruf dar-o' ba-don nav', ki "avval" va "naxustin" va "rux" va "sar" va "toj" va "jayb" va "bolo" va "sofi" va "shu'la" va onchi dalolat kunad bar hurufi avvali kalima go'yand va harfi avvalro xohand". Intiqod so'zdagi ba'zi harflarning tasarrufining turlariga ishoradir. Ya'ni bunda "avval", birinchi, yuzi, boshi, toji, cho'ntagi, sofi, shu'lasu kabi so'zlar orqali ko'pincha muayan so'zning birinchi harflarini nazarda tutadilar. Keyin mazkur manbada quyidagi muammo keltiriladi:

Dili moro chu xohi boz justash,
Z-ohu dardu mehnat jo'- naxustash.

(Agar bizning ko'nglimizni yana ham topmoqchi bo'lsang, OHdan, darddan va mehnatingni birinchi qismidan izla!)

Bu muammodan O + D + M, ya'ni Odam so'zi chiqadi. Shu o'rinda Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidan bir misolni keltirishni lozim topdik:

Anga farzona Farhod ism qo'ydi,
Hurufi ma'xazin besh qism qo'ydi.
Firoqi rashku hajru oh ila dard,
Birar harf ibtidodin aylabon fard .

Ayni shu baytdagi muammo yuqoridagi tahsiliy muammoning birinchi qismi bo'lgan intiqod amali shakliga mansubdir. Bundagi ikkinchi baytning birinchi misralaridagi bosh harflardan FARHOD ismi hosil bo'ladi. Ayni shu ismni hosil qilishda Hazrat Navoiy mazkur ismni boshqa usullarini ham qo'llagan bo'lib, bu haqda keyingi maqolalarda to'xtalib o'tamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmad al-Muammoiy “Risolayi Muammo”. Istanbul, Sulaymoniya kutubxonasi “Yazma Bagıslar”fondı .No_566
2. Navoiyshunoslik, (darslik) Sh. Sirojiddinov, D. Yusupova,O. Davlatov. “Tamaddun” Toshkent 2018.
3. Alisher Navoiy. “Xamsa”. “Yangi asr avlodi”,2016